

Vazirlar Mahkamasining
2003 yil 1 iyuldag'i
298-sон qaroriga
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Davlat Patent idorasining Appellatsiya kengashi to'g'risida

NIZOM

I.Umumi qoidalar

1.Ushbu nizom "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari va sanoat namunalari to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida" hamda "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasining Appellatsiya kengashi (keyingi o'rinnarda Appellatsiya kengashi deb ataladi) vakolatlarini, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2.Appellatsiya kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasining (keyingi o'rinnarda Patent idorasi deb ataladi) ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini, seleksiya yutuqlarini, integral mikrosxemalar topologiyalarini, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq appellatsiyalarini sudgacha ko'rib chiquvchi kollegial organi sifatida amalga oshiradi.

3.Appellatsiya kengashi qarorlar qabul qilishda mustaqil hisoblanadi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining intellektual mulkni muhofaza qilishga doir xalqaro shartnomalariga, mazkur Nizomga amal qiladi.

II.Appellatsiya kengashining vakolatlari

4.Appellatsiya kengashi

- a) Patent idorasining talabnama berilgan: sanoat mulki obyektlari; seleksiya yutuqlari; integral mikrosxemalar topologiyalari; tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlariga nisbatan qabul qilingan qarorlar yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi;
- b) manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning: sanoat mulki obyektlariga; seleksiya yutuqlariga patent berilishi yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi;
- v) manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning integral mikrosxemalar topologiyalarining ro'yxatdan o'tkazilishi yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi;
- g) manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning: sanoat mulki obyektlarigava seleksiya yutuqlariga berilgan patentlarning haqiqiyligi; O'zbekiston Respublikasi hududida belgining xalqaro ro'yxatdan o'tkazilishining amal qilishi yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi;
- d) quyidagilarning: integral mikrosxemalar topologiyalarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomalarining; tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilariga berilgan, tovar kelib chiqqan joy nomlaridan foydalanish huquqiga berilgan guvohnomalarining amal qilishi to'xtatilishi yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi;
- ye) tovar kelib chiqqan joy nomi ro'yxatdan o'tkazilishi bekor qilinishi yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi;
- j) tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilarining O'zbekiston Respublikasida umum e'tirof etilgan deb tan olinishi yuzasidan appellatsiyalarini ko'rib chiqadi.

5. Appellatsiya kengashi appellatsiya ko'rib chiqilishi munosabati bilan:

appellatsiya bergen shaxslardan, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslardan appellatsiyani ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va ma'lumotlarni surab olishga; qo'shimcha ekspertiza tayinlash, uni o'tkazish uchun mustaqil ekspert va maslahatchilarni jalb etish; Patent idorasi ixtiyoridagi patent hujjatlari va ilmiy-texnika adabiyotlari davlat fondlaridan foydalanish huquqiga egadir.

III. Apellatsiya kengashi tarkibi va uni shakllantirish tartibi

6. Apellatsiya kengashi Kengash raisi, uning o'rribosari, kengash a'zolari va kotibidan iborat tarkibda faoliyat ko'satadi.

Patent idorasining direktori Apellatsiya kengashi raisi hisoblanadi. Apellatsiya kengashi tarkibiga Patent idorasini direktorining o'rribosarlari, Patent idorasining eng malakali va tajribali xodimlari, shuningdek mustaqil omillar va mutaxassislar kiradi.

Apellatsiya kengashining shaxsiy va son tarkibi Patent idorasini direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

7. Apellatsiya kengashi raisi, uning topshirig'iga ko'ra esa – uning o'rribosari Apellatsiya kengashining faoliyatini tashkil etadi.

8. Apellatsiya kengashida ishlar kengash kotibi tomonidan yuritiladi. Apellatsiya kengash kotibi Apellatsiya kengashi tomonidan qarorlar qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas.

IV. Apellatsiya kengashi faoliyatini tashkil etish

9. Apellyayi kengashi faoliyati majlislar o'tkazish yo'li bilan tashkil etiladi.

Majlislar zaruriyatga ko'ra Apellatsiya kengashi raisi tomonidan, u bo'lman taqdirda esa uning o'rribosari tomonidan chaqiriladi.

Apellatsiya kengashi majlisida protokol yuritiladi, uni Apellatsiya kengashi raisi va kotibi imzolaydi.

10. Apellatsiya kengashi majlislarida apellatsiya bergan shaxs yoki uning vakili, boshqa manfaatdor yuridik yoki jismoniy shaxslar qatnashishga haqlidirlar. Apellatsiya bergan shaxs va ko'rib chiqilayetgan ish bo'yicha tomonlar hisoblangan boshqa shaxslar majlis bo'lishidan kamida o'n kun oldin majlis o'tkaziladigan joy, sana va vaqt to'g'risida yozma ravishda xabardor qilinishi kerak.

Apellatsiya bergan shaxs boshqa manfaatdor shaxslar iltimosnomasiga binoan Apellatsiya kengashi majlisi kengash qaroriga ko'ra kechroq, lekin olti oydan ko'p bo'lman muddatga ko'chirilishi mumkin. Bunda apellatsiyalarni ko'rib chiqishning balgilangan muddatining o'tishi Apellatsiya kengashi majlisining yangi sanasigacha to'xtatib turiladi.

11. Intellektual mulk obyektiga huquqiy muhofaza berish to'g'risidagi talabnomani ko'rib chiqishda va uning bo'yicha ekspertiza o'tkazishda ishtirot etgan Apellatsiya kengashi a'zolari xulosa berish yoki Apellatsiya kengashining mazkur intellektual mulk obyekti bilan bog'liq apellatsiyalar ko'rib chiqilayotgan majlisida qatnashish huquqiga ega emas.

12. Qo'shimcha materiallar va ma'lumotlar zarus bo'lgan taqdirda ular Apellatsiya kengashi tomonidan belgilangan muddatlar taqdim etilishi kerak. Apellatsiya bergan shaxs va boshqa manfaatdor shaxslar iltimosnomasiga ko'ra qo'shimcha materiallar va ma'lumotlarni taqdim etish muddati Apellatsiya kengashi tomonidan uch oydan ortiq bo'lman muddatga uzaytirilishi mumkin. Bunda apellatsiyalarni ko'rib chiqish belgilangan muddatining o'tishi uzaytirish muddatigacha to'xtatilib turiladi.

13. Apellatsiyalar berish va ularni Apellatsiya kengashi tomonidan ko'rib chiqish qoidalari Patent idorasini tomonidan tasdiqlanadi.

14. Apellatsiyalarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Apellatsiya kengashi apellatsiyalarni qanoatlantirish, qisman qanoatlantirish yoki apellatsiyalarni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qarorlar qabul qiladi. Apellatsiya kengashi qabul qilingan qarorlarning asolanganligini va qonuniyligini ta'minlaydi.

Tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Apellatsiya kengashi ayni paytda ushbu ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqiga berilgan guvohnomalarning amal qilinishini muddatidan oldin to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi. Apellatsiya kengashi qarori yuzasidan qabul qilingan sanadan boshlab olti oy mobaynida sudga shikoyat qilinishi muikin.

15. Apellatsiya kengishi qarorlari qabul qilingan kundan boshlab besh kun mobaynida appellatsiya bergen shaxslarga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuboriladi, shuningdek Patent idorasining rasmiy nashrida e'lon qilinadi.

16. appellatsiya kengashi faoliyatini moliyalashtirish appellatsiyalarni ko'rib chiqish bo'yicha yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirganlik uchun undiriladigan patent bojlari hisobiga amalga oshiriladi. Patent bojlari Patent idorasiga to'lanadi. Patent bojlari miqdori, ularni to'lash muddatlari, shuningdek ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.